

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI ORGANLARI VA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING NAZARIY – METODIK ASOSLARINING AHAMIYATI (Adabiyotlar sharhi).

N.Ismoilova - i.f.n., dotsent.

M.I.Daminova - magistr

O‘zbekiston respublikasi bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jahon amaliyotida davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit bo‘yicha umumqabul qilingan normalar xalqaro standartlar bilan belgilangan. Davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirishni isloh etish jarayonida davlat sektorida ichki audit faoliyatini ushbu normalarga muvofiqlashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy nazorat, davlat sektori, ichki audit, byudjet tashkiloti, buxgalteriya hisobi, ta‘minot, tovar moddiy zahiralar, xarajat, hisobot, materiallar, tovarlar, tayyor mahsulotlar, kirim va chiqim xujjatlari, tovar moddiy zaxiralar sarflanganligi dalolatnomalari, buxgalteriya hisobvaraqlari, joriy qiymat, tovar moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi, joriy aktivlarni baholash.

Bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki, butun dunyoda ham nazoratning, ayniqsa, moliyaviy nazoratning yangidan-yangi, iqtisodiy tejankor va samarali shakllarini yaratish hamda amaldagilarini takomillashtirish masalasiga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Natijada, moliyaviy nazoratning maqsadi, vazifalari va shakllari tubdan o‘zgarimoqda. Shu bois, “endi u faqatgina jazolovchi organ sifatida emas, balki davlatning o‘z funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning to‘liq to‘planishi, byudjet mablag‘laridan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilishni nazorat qilish, maslahat va ko‘rsatmalar berish kabi vazifalarni bajarmoqda”. Bunga sabab, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni uzviy davom ettirish hisobiga, iqtisodiyot tarmoq va sohalarining kengayishi, rivojlanishi, ya‘ni, tashqi va ichki iqtisodiy integratsiya hamda xalqaro tashqi savdo aloqalari, davlatlararo investitsiyalarning harakati va boshqalarni keltirish mumkin.

Moliyaviy nazorat - davlat byudjetida davlatning siyosiy-huquqiy choralar yordamida jamiyat moliyaviy tizimiga yo‘naltirilgan iqtisodiy- ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga ruxsat beruvchi mexanizmlardan biri hisoblanadi. Nafaqat O‘zbekiston, balki rivojlangan Yevropa mamlakatlari va AQSh tarixidan ham ma‘lumki, to‘la erkin sof bozor munosabatlari hech qachon, hech qaysi davlatda bo‘lmagan. Chunki, hanuzgacha davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz

oqibatida bozor munosabatlarini tartibli boshqarishga intilayotgan har qaysi davlat, bugungi kunda iqtisodiyot sohasida eng muhim va dolzarb masalalar yechimini topishda ayrim muammolarga duch kelayotganligi sir emas.

Albatta, har bir mamlakat, davlat moliyaviy nazorat tizimida ma'lum farqlar mavjud. Bu ularning tarixiy an'analari, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Biroq, 1977 yilda qabul qilingan Xalqaro Lim deklaratsiyasiga binoan, nazoratning boshqarish tamoyillari hamda yuqori turuvchi nazorat organlarining Xalqaro tashkiloti – INTOSAI ni samarali va istiqbolli faoliyati, davlat boshqaruv tizimida moliyaviy nazorat organlarining rolini oshirish uchun umumiy, yagona yondashuvlar ishlab chiqilgan edi.

Ma'lumki, moliyaviy nazorat tayinlanishining asosiy sharti - iqtisodiyotning barcha tarmoq, soha va bo'g'inlarida moliyaviy resurslarni shakllanish, ulardan samarali foydalanish jarayonini ta'minlashdan iborat. Umuman, moliyaviy nazorat - bu moliyaviy va u bilan bog'liq xo'jalik yuritish va boshqarish faoliyatidagi masalalarni tekshirish bo'yicha uni tashkil etishning maxsus shakl va usullarini qo'llagan holda yalpi amalga oshirish tartib-qoidalari va operatsiyalari majmuidir.

Shu bois, fikrimizcha, moliyaviy nazorat atamasining nazariy asosini chuqur ilmiy tadqiq etmasdan turib, uning yangi shaklini taklif etish va soha amaliyotida qo'llashni tavsiya etish qiyin. Moliyaviy nazoratning mazmuni, o'rni va ahamiyatini o'rganish bo'yicha juda ko'p xorijiy va mahalliy mutaxassis, olimlar shug'ullangan bo'lib, ular olib borgan tadqiqotlar aks etgan nashrlarni tahlil qilish natijasida, moliyaviy nazorat haqida bildirilgan turlicha fikr-mulohazalar bilan tanishishga imkon yaratildi.

Yuqori turuvchi nazorat organlari xalqaro tashkiloti (INTOSAI)ning IX Kongressida 1977 yilda qabul qilingan Xalqaro Lim deklaratsiyasining 1- moddasi «Nazoratning maqsadi»da unga: “Nazoratni tashkil etish ijtimoiy moliyaviy mablag'larni boshqarishning zaruriy elementi hisoblanadi, chunki bunday boshqaruv jamiyat oldidagi mas'uliyatni keltirib chiqaradi. Nazorat shunchaki maqsad bo'lib qolmasdan, balki tartibga solish tizimining ajralmas qismidir, uning maqsadi ahvolni to'g'rilash choralarini ko'rish, ayrim hollarda aybdorlarni javobgarlikka tortish, yetkazilgan zarar uchun tovon undirib olish yoki kelgusida bunday buzilishlarning oldini olish yoxud kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun imkoni boricha dastlabki bosqichda qabul qilingan standartlardan chekinishlarni va qonun qoidalarining buzilishlarini, moddiy resurslarning samaradorligi va tejab sarflanishini aniqlashdan iboratdir”, deb e'tirof etilgan.

Ayrim rossiyalik olimlar esa, moliyaviy nazoratning mohiyatini to'liqroq anglash maqsadida, quyidagicha ta'rif berishadi:

N.Malein bu borada “Moliyaviy nazorat - tekshiruvda qonuniylik, asoslilik va pul xarajatlarining to'g'ri sodir etilganligini aniqlashdan iborat bo'lgan hamda

rejalarning bajarilish jarayonida moliyaviy, byudjet, kredit, hisob-kitob va kassa intizomini ta'minlashga qaratilgan, moliyaviy, kredit va xo'jalik organlari (tashkilotlari)ning huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan faoliyatidir" deb ta'kidlaydi.

Shuningdek, A.Kozirin esa "Moliyaviy nazorat – davlat organlarining maxsus tashkiliy shakl va usullar yordamida, ayrim hollarda nodavlatorganlarining qonunda keltirilgan vakolatlari doirasida moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va haqqoniyligini aniqlash, moliya-xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ob'ektiv baholash, rezervlarni aniqlash va oshirish, byudjet daromad tushumlarini ko'paytirish va davlatmulkini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatidir" deya e'tirofetadi.

T.Konyuxova bunda "Moliyaviy nazorat – mamlakat va uning alohida hududlarini samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish sub'ektlari pul fondlarini shakllanish, taqsimlash va foydalanish sohasidagi harakatning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi ustidan nazorat" deb izohlaydi.

Yana bir olim Ye.Gracheva "Moliyaviy nazorat – moliyaviy tizimlarning barcha bo'g'inlarida resurslarning shakllanish, taqsimlash va foydalanish ustidan davlat nazoratining ko'rinishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. U davlat mablag'larining xarajat qilinishini, davlat resurslari harakatining o'z vaqtidaligi va to'liqligi, barcha moliyaviy tizimlar bo'g'inlaridagi daromad va xarajatlarning qonuniyligi, hisob va hisobot qoidalariga amal qilinishini tekshirishga qaratilgan" [6], deb ta'rif beradi. Shuningdek, S.O.Shoxin esa, uni "Moliyaviy nazorat – davlat va jamoat organlarining davlat byudjeti daromadlari rezervlarini izlash, xo'jalik va moliyaviy operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda qonuniyligini o'rnatish, ushbu faoliyatning iqtisodiy samaradorligini ob'ektiv baholash maqsadida, korxonalar, muassasa va tashkilotlar moliya-xo'jalik faoliyati ustidan belgilangan nazorat funksiyalarini kuzatishning ko'p qirrali, tarmoqlararo tizimidir", deya ifodalaydi.

Ye.Grachevaning yana boshqa bir adabiyotida unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Moliyaviy nazorat – fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun jamiyatda samarali moliyaviy siyosatni amalga oshirish maqsadida davlat va ijtimoiy pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish jarayonidagi harakatlarning qonuniyligi ustidan nazoratdir".

L.Ovsyannikov esa: "Moliyaviy nazorat – davlat va mulkdorlar tomonidan o'rnatilgan qonunchilik, me'yor va qoidalar talablariga moliyaviy munosabatlar qatnashchilarining amal qilishini maxsus vakolatli organlar tomonidan tekshirishni nazarda tutadi", deb fikr bildiradi.

R.Somoev: "Moliyaviy nazorat – bu, davlat hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar hamda maxsus shakl va usullar

yordamida tashkil etilgan aholining moliyaviy va u bilan bog‘liq operatsiyalar va harakatini tekshirish bo‘yicha nazorat sub‘ektlari tomonidan o‘tkaziladigan yalpi qamrab olingan chora-tadbirlar majmuidir” deya izohlaydi.

S.Stepashin bu borada: “Moliyaviy nazorat (tashqi) – davlat hokimiyati qonunchilik organlari va ular tomonidan davlat moliyaviy va moddiy mablag‘larining tushumi, harakati va xarajat qilinishi barcha ko‘rinishdagi davlat resurslari, davlat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyoz va ustunliklar hamda davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlari va boshqa davlat mulklari mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha maxsus tashkil etilgan institutlar tomonidan amalga oshiriladigan, huquqiy me‘yorlar asosida tartibga solinadigan faoliyatdir” deb fikr bildiradi.

Fadeykina N., Voronov V.lar esa “Moliyaviy nazorat – moliyaning alohida funksiyasi bo‘lib, uning maqsadi - moliyaviy resurslarni boshqarishning samaradorligi va qonuniyligi bo‘yicha qabul qilingan standartlardagi farqlarni ochish hisoblanadi. Bunday farqlar mavjud bo‘lganda – tegishli zamonaviy preventiv va to‘g‘rilovchi choralar qabul qilinadi” deb ta‘rif berishadi.

V.Shevlovkov: “Moliyaviy nazorat – uni tashkil etishning maxsus shakl va usullarini qo‘llagan holda xo‘jalik yuritish va boshqarish sub‘ektlari faoliyatidagi moliyaviy va u bilan bog‘liq masalalarni tekshirish bo‘yicha yalpi harakat va operatsiyalar majmuidir” deb ta‘kidlaydi.

Bashkatova T. ham bu borada, unga: “Moliyaviy nazorat: 1) barchaiqtisodiy sub‘ektlar moliyaviy intizomi va moliyaviy qonunchiligiga rioya etilishi ustidan maxsus yaratilgan nazorat organlarining qat‘iy reglament(chegara)langan faoliyatidir; 2) moliyaviy operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini ta‘minlash maqsadida, makro va mikro darajadagi pul oqimlari va moliyani boshqarishning ajralmas elementidir” deb o‘z qarashlarini bildiradi.

Mahalliy olim Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B.lar esa, unga quyidagicha ta‘rif beradi: “Moliyaviy nazorat – moliyaviy resurslar harakatining hamma jarayonlarini ... mablag‘larni tashkil topish jarayonidan boshlab, har qanday faoliyatni boshlashdan, to uning moliyaviy natijalarini aniqlashgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi”.

Ta‘kidlash joizki, moliyaviy nazoratning ob‘ektlari ham turli manbalarda turlicha talqin etilgan. Masalan, ayrim mualliflar: E.Voznesenskiy, I.Belobjeskiylar nazorat ob‘ekti sifatida insonlarning hatti-harakati yoki xulq-atvorini e‘tirof etsa, ayrim olimlar Yu.Danilevskiy, T.Mezenseva, V.Rodionova, V.Shleynikovlar esa nazorat ob‘ektini korxonalar, tashkilot va boshqaruv organlari mansabdor shaxslari faoliyati, deya izohlaydi. Yana bir olim A.Kovaleva esa korxonalar, tashkilot va muassasalar faoliyatining moliyaviy ko‘rsatkichlarini moliyaviy nazorat ob‘ektiga kiritadi. To‘rtinchi guruh olimlardan V.Bursev, M.Shidlovskaya, A.Polovinkinlar esa, mulk va uning manbalarini shakllantirish, uning o‘zgarishini keltirib chiqaradigan xo‘jalik jarayonlarini nazorat ob‘ekti, deb tushuntiradilar. Yana bir guruh boshqa olimlar

Ye.Gracheva, R.Somoevlar ham o‘ziga xos ifodani keltirib, moliyaviy nazoratning bevosita ob’ekti - jamoat mahsuloti qiymatini taqsimlash yoki uni qiymati bo‘yicha natural-moddiy shaklda taqsimlashni aks ettiruvchi pul fondlari va munosabatlari shakllantirish va undan foydalanish jarayonlaridir, deb talqin etishadi. Mahalliy olimlar V.Nuritdinova, M.Sharapovalar esa, “moliyaviy nazoratning ob’ekti pul munosabatlari hisoblanadi” deb ta’kidlashadi.

Bizningcha, yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirib, yanada soddaroq qilib, aytilish mumkinki, moliyaviy nazoratning ob’ekti sifatidamulk shakli (davlat, xususiy, aralash) dan va uning faoliyat yuritish turi, shaklidan qat’i nazar, barcha korxonalar, tashkilot va muassasalar moliya-xo‘jalik faoliyati hamda unga moliyaviy ta’sir etuvchi bevosita va bilvositaqatnashgan barcha (yuridik va jismoniy) shaxslar faoliyati kiritilishi mumkinligi, maqsadga muvofiq.

Endi, moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi sub’ektlar haqidagi fikr-mulohazalarga ham e’tibor qaratsak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu borada ham juda ko‘plab xorijiy, mahalliy olimlar o‘ziga xos qarashlarini bayonetishgan. Shu bois, ulardan ayrimlarini keltirib o‘tsak. Masalan, mahalliy olim Z.Mamatov “moliyaviy nazoratni bozor iqtisodiyotining muhim elementlaridan biri sifatida e’tirof etib, moliyaviy nazoratni amalga oshirish sub’ektlari, tizim nuqtai nazaridan, ikkiga: davlat moliyaviy nazorati va auditorlik faoliyatiga ajratadi hamda mamlakatda davlat moliyaviy nazoratini Prezident devoni huzuridagi Hisob palatasi, Moliya vazirligining nazorat-taftish boshqarmasi, Raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi kurashish Qo‘mitasi, Prokuratura huzuridagi Soliqlar va valyutaga oid jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq Qo‘mitasi kabi nazorat organlari, shuningdek, mustaqil moliyaviy nazoratni auditorlik tashkilotlari amalga oshiradi” deya ta’kidlaydi. Yana ayrim mahalliy olimlar V.Nuritdinova, M.Sharapovalar “Moliyaviy nazoratning sub’ekti nazoratni olib boruvchi organlar hisoblanadi” deb fikr bildirishadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, moliyaviy nazorat, tizim sifatida - davlat tomonidan tashkil etilgan, nazorat qilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustaqil jamoat tashkilotlari tomonidan hukumat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat tizimidir. Davlat byudjetini shakllantirish va sarflashdagi rezervlarni, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning barcha darajalarida operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini, qonuniylik prinsiplaridan chetga chiqish va ulardagi buzilishlarni aniqlash nazorat tizimi vazifasiga kiradi. Bu borada moliyaviy nazorat tizimining maqsadi – aniqlangan kamchiliklar yuzasidantuzatish choralarini ko‘rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va sodir etilishi mumkin bo‘lgan xatoliklarning oldini olishdan iborat. Shuningdek, moliyaviy nazorat o‘tkazilish vaqti bo‘yicha dastlabki, joriy (operativ), navbatdagi (kelgusi, so‘nggi) shakllarda bo‘lishini ta’kidlash joiz.

Mamlakatimizda ham boshqa davlatlarda bo‘lgani kabi so‘nggi yillarda byudjet mablag‘laridan foydalanishning natijaviyligi va samaradorligini oshirishga ahamiyat qaratilmoqda. Buni “byudjet xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish modeli”dan “natijaviylik modeli”ga o‘tilayotganligi bilan asoslash mumkin.

Ma’lumki, O‘zbekiston amaliyotida bojxona sohasidagi davlat moliyaviy nazoratini Davlat bojxona qo‘mitasi, jumladan, uning bojxona nazoratigaoid maxsus yuqori malakali mutaxassis-mansabdor shaxslar guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari qonuniy tartibda qattiq tartibga solinadi. Ta’kidlash joizki, bojxona nazorati birinchidan, mamlakatning iqtisodiy jihatdan xavfsizligini ta’minlash, ikkinchidan davlatning tashqi iqtisodiy aloqalaridan tushumlar, to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida, qonuniy asosda tushishini nazorat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksiga ko‘ra, davlat bojxona organlarining moliyaviy nazorati - bojxona nazorati deb nomlanadi. Unga ko‘ra “Bojxona nazorati - O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta’minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan xatarlarni boshqarish tizimi qo‘llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir. Bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan hamda bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilishi kerak” deya ta’rif berilgan. Shu bois, ushbu me’yorga ko‘ra, bojxona nazorati:

✓ bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan va deklaratsiyalanishi lozim bo‘lgan tovarlarga va transport vositalariga nisbatan;

✓ bojxona deklaratsiyasiga binoan taqdim etilgan tovarlar to‘g‘risidagi hujjatlarga va ma’lumotlarga nisbatan;

✓ yuridik va jismoniy shaxslarning tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tish, bojxona ishi sohasida xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha, shuningdek alohida bojxona rejimlari doirasida amalga oshiriladigan faoliyatiga nisbatan o‘tkaziladi.

Biroq, rivojlangan xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimiz bojxona tizimidagi moliyaviy nazoratning amaldagi shakli “bojxona nazorati” tushunchasi o‘rniga, ular amaliyotida allaqachon keng joriy etilgan “bojxona auditi” tushunchasi qo‘llaniladi. Buning, o‘ziga xos sabablari bor. Chunki, o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishdan manfaatdor barcha davlatlarda, jumladan, mamlakatimizda ham davlatlararo xalqaro integratsiya, ya’ni, o‘zaro tashqi savdo aloqalari (eksport va import operatsiyalari), investitsiyalar harakati, mehnat migratsiyasi va boshqa qator masalalarda iqtisodiy jihatdan o‘zaro teng huquqli va sherikchilik asosida doimiy, uzluksiz faoliyat yuritish jarayonlarini tezlashtirish zarurati, bojxona auditini amalda qo‘llashni taqozo etadi. Shu bois, o‘zaro xalqaro tashqi savdo qatnashuvchilarining qonuniy asosda faoliyat yuritishini doimiy nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda ham davlat, ham xususiy sektor manfaatlari jismoniy va yuridik shaxs nuqtai

nazaridan teng bo'lishi kerak. Ta'kidlash joizki, bojxona auditini moliyaviy nazoratning tarkibiy qismi sifatida qarash, talqin etishning zarurati shundaki, bojxona organlarining ayrim funktsiya va vazifalari, istiqbolda, ushbu moliyaviy nazorat vositasi yordamida bajarilishi asta-sekin, bosqichma-bosqich ta'minlanib boriladi. Umid qilamizki, yaqin istiqbolda bojxona audit tizimga oid barcha me'yoriy- huquqiy asoslarga tayanib, faoliyat ko'rsatadi. Shunday ekan, bojxona auditining asosiy maqsadi nima o'zi yoki ushbu tushunchaning mohiyati va vazifasi haqida bildirilgan fikr-mulohazalarga yohud bojxona auditiga berilgan ta'rif va izohlarga e'tibor qaratsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan, Agapova A. fikricha: "Bojxona auditining asosiy vazifasi – qonunlarga itoat etuvchi vijdonli TIF qatnashchilari uchun bojxona jarayonlarini tezlashtirish, bojxona rasmiylashtiruv jarayonidagi ortiqcha xarajatlarni kamaytirish hamda bojxona auditini bojxona rasmiylashtiruv vaqtida emas, balki tovarlarni erkin muomalaga chiqarilgandan so'ng o'tkazishdan iborat".

Stupachenko I. esa "Bojxona auditining mohiyati - tovarlarni import qilish bo'yicha bitimlarda soliq va bojxona organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik strategiyasini qurishda, soliq e'tirozlari uchun asos bo'luvchi bo'lishi mumkin bo'lgan hisobdagi xatoliklarni aniqlash tahlilida namoyon bo'ladi" deb izohlaydi.

Bojxona auditining asosiy vazifalaridan biri – bojxona to'lovlarini to'g'ri hisoblanganligi va undirilganligini baholashdan iborat. Bu hozirgi xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanayotgan bir vaqtda, eksport-import salohiyati byudjet siyosatining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib qolayotganligini ta'kidlash joiz.

Marchuk I. ham bu borada fikr bildirib: "Bojxona audit jarayonini, tovarlarni amaldagi yetkazib berish sxemasiga muvofiq, tovarlar artikul asoslari tahlilini o'tkazish hamda tovarlar erkin muomalaga chiqarilgandan so'ng, ular bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish xususiyatlarini o'rganish, tovarlar bojxona rasmiylashtiruv mexanizmining xususiyatlari sifatida tadqiq etish" deb e'tirof etadi.

Piskun K. fikriga ko'ra: "Bojxona audit – tovarlar erkin muomalaga chiqarilib bo'lingandan so'ng, ularga nisbatan munosabatda e'lon qilingan bojxona rejimiga muvofiq, deklaratsiyalash vaqtida e'lon qilingan ma'lumotlarning haqqoniyligini aniqlashga yo'naltirilgan, xususan, e'lon qilingan tovarlarning bojxona qiymati to'g'riligini tasdiqlash, xatoliklarni aniqlashga qaratilgan chora-tadbirlarni o'tkazish" dan iboratdir.

Bizningcha, bojxona auditining maqsadi – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasi bilan tuzilgan xalqaro shartnoma, kelishuvlar shartlarining amaldagi ijrosida tashqi savdoga oid qonun buzilish holatlarini va qabul qilingan standartlardagi tashqi savdoga oid farqlarni hamda tashqi savdoga oid faoliyat samaradorligi tamoyillarini yanada oldinroq vaziyatda aniqlash va umuman xalqaro tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishga ko'maklashishdan iborat. Shu bois, xalqaro tashqi savdo sub'ektlari faoliyatining bojxona jarayonlari

bilan o‘zaro bog‘liq moliya-xo‘jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvdan o‘tkazish yordamida birinchidan, tizimda o‘rnatilgan me‘yorlarga rioya qilinishi o‘rganilsa, ikkinchidan, ularning Hukumat tomonidan davlat moliyasiga oid vazifalarini bajarishida ruxsat berilgan va amalga oshirilayotgan faoliyatining iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini tahlil qilishga imkon yaratiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha xalqaro tashqi savdo sub’ektlari shartnomaviy munosabatlarga o‘z mulki, pul mablag‘laridan foydalangan holda tijorat muomalalari va investitsiyalarni amalga oshirishga kirishadilar. Bunday munosabatlarning ishonchliligini ta‘minlashda barcha xalqaro tashqi savdo sub’ektlari moliyaviy axborotining haqqoniyligi katta ahamiyat kasb etadi. Ular fikricha, moliyaviy axborotlar ishonchli deb tan olinishi uchun, albatta, auditorlar tomonidan tasdiqlanishi shart. Bizningcha, iqtisodiyotimizni yanada isloh qilishning hozirgi sharoitida xalqaro tashqi savdoda axborotlarning shaffofligini ta‘minlash maqsadida bojxona auditini tashkil etish va uning metodologiyasi yaratishning zarurati paydo bo‘lmoqda va unga quyidagilar sabab bo‘lmoqda:

➤ Bojxona tizimidagi idoraviy nazoratning iqtisodiy samara darajasi pastligicha qolayotganligi sabab, hanuzgacha eksport va import operatsiyalarida bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog‘liq iqtisodiy jinoyatlarning sodir etilish holatlarining mavjudligi;

➤ Yangidan-yangi xususiy mulkka asoslangan, xalqaro tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning paydo bo‘lishi hamda ular faoliyatining nazoratini amalga oshiruvchi yuqori turuvchi tashkilot tushunchasining yo‘qligi;

➤ Bojxona qonunchiligida sodir etilayotgan yangi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar, jumladan, qo‘shimcha imtiyoz va preferensiyalarning amalga kiritilishi, bojxona tarifi stavkalarining o‘zgarishi, yangidan imzolananayotgan xalqaro konvensiya va shartnomalar shartlarini bajarish shartligi va ulardan o‘z vaqtida bevosita xalqaro savdo qatnashchilarining xabar topmasligi;

➤ Bojxona rasmiylashtiruvda yordamlashuvchi bojxona brokerlarining faoliyatini xolis nazorat qiluvchi tashkilotning yo‘qligi;

➤ Umumdavlat moliyaviy nazorat organlari, jumladan, bojxona organlari tomonidan barcha xalqaro savdo sub’ektlari faoliyatini muntazam, chuqur moliyaviy nazoratdan o‘tkazish imkonining yo‘qligi sabab (vaqtning yetishmasligi, mutaxassislar yetarli emasligi va buning uchun davlat byudjetidan qo‘shimcha mablag‘ talab etilishi, bojxona nazoratidan so‘ng tovarlar erkin muomalaga chiqarilgandan so‘nggi nazoratining amalga oshirilmamasligi va h.k.lar), ushbu vazifani auditorlik tashkilotlariga yuklatilishi va boshqalar.

Aytish joizki, bojxona auditining natijalaridan, nafaqat xalqaro tashqi savdoda qatnashuvchi sub’ektlar, balki ular bilan bilvosita aloqador tashkilotlar, jumladan, bank, soliq va bojxona organlari ham o‘z sohasi doirasida birdek manfaat ko‘radilar.

Chunki, bojxona auditi yordamida TIF sub'ekti tashqi savdo jarayonlari aks etgan moliyaviy axborotlarining hisob va hisobot hujjatlarida milliy va xalqaro me'yor talablariga muvofiq kelish yoki kelmasligi isbot-dalillar bilan aniqlanib, tegishli xulosa beriladi.

Bundan tashqari, Davlat bojxona qo'mitasi qoshida bojxona auditi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarni o'qitish, kerak bo'lsa qayta tayyorlash vamaalakasini oshirishni yo'lga qo'yish zarur. Buning to'liq asoslar mavjud. Davlat bojxona qo'mitasiga qarashli Oliy harbiy bojxona instituti va uningmalaka oshirish fakultetida hozirgi kunga qadar faqat "Bojxona ishi" va "Bojxona huquqshunosligi" yo'nalishi bo'yicha mutaxassis-xodimlar tayyorlanadi. Ular o'qishini yakunlagandan so'ng, faqat shu sohadagi bo'sh ish o'rinlariga yo'naltiriladi. Fikrimizcha, birinchidan, ushbu ta'limmuassasasida "Bojxona auditi" yo'nalishini cheklangan miqdorda faqat to'lov kontrakt asosida ochilishi davlat byudjetiga byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag'larni ishlab topishga imkon bersa, ikkinchidan, bo'lajak bojxona auditorlarini tayyorlashda qonuniy asoslar yaratilgan bo'lar edi.

Shuningdek, bojxona auditini tashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish zarur. Buning uchun, har yili Davlat bojxona qo'mitasi davlat bojxonaorganlarida bojxona deklaratsiyalarini taqdim etuvchi TIF sub'ektlari yoki ularning vakolatli shaxslarini bojxona auditidan o'tkazishga qat'iy talablarni ishlab chiqishi yoki belgilashi zarur. Bunga sabab, hozirgi kunda amalda faoliyat yuritib kelayotgan TIF sub'ektlarining eksport-import operatsiyalari bo'yicha bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirishga ko'maklashuvchi vakolatli shaxslarning aksariyati, yoki ilgari bojxona sohasidaishlab, ma'lum bir sabablarga ko'ra xizmatdan bo'shatilgan yoxud nafaqadagi sobiq bojxona xodimlaridir.

Shuningdek, amaldagi Bojxona kodeksi va undan kelib chiqadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga "bojxona auditi", "bojxona auditori", "bojxona nazoratidan so'ng o'tkaziladigan tekshiruv", "audit usullari yordamidagi bojxona nazorati", "xalqaro tashqi savdo" kabi tushunchalar, ta'bir joiz bo'lsa, ularning batafsil ta'rifi, mazmuni keng yoritilgan izohlarni kiritishi talab etiladi. Bunda, mazkur kodeksdan kelib chiqib, boshqa qonunosti hujjatlarga ham o'zgartirish kiritishga to'g'ri keladi.

Yuqoridagilarni mamlakatimiz bojxona amaliyotiga joriy qilish oson ish emas, buning uchun bir muncha vaqt talab etiladi. Biroq, o'ylaymanki, agar tizim tajribasida qo'llanilsa, albatta bojxona jarayonlari xalqaro konvensiya talablarida keltirilgani kabi yanada soddalashgan va xalqaro me'yorlarga xos uyg'unlashgan hamda eng asosiysi, mamlakatda tashqi savdo jarayonlari tezlashishi hisobiga birinchidan, davlat byudjetini yanada ko'proq mablag' bilan ta'minlash, ikkinchidan xo'jalik sub'ektlari tashqi savdo faoliyatidagi xarajatlarni minimallashtirish va sof foydani maksimallashtirishga erishish hisobiga sohani yanada rivojlantirish uchunqo'yilgan yangi qadam bo'lar edi.

G'arb mamlakatlarida ichki audit XX asrning boshlarida paydo bo'ldi va

ikkinchi jahon urushidan keyin kompaniyalarning qayta markazlashtirish hajmining o'sib borishiga javob sifatida rivojlanish uchun turtki oldi. 1941 yilda AQSHda ichki auditor kasbini rivojlantirish va ommalashtirishni, kasbiy faoliyat standartlarini ishlab chiqishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ichki auditorlar instituti (The Institute of Internal Auditors) barpo etildi. Hozir institutning dunyoning 165 mamlakatidan 170 mingtaga yaqin auditorlardan a'zolari mavjud. Ilk marotaba ichki auditor lavozim yo'riqnomasi 1947 yilda Ichki auditorlar institutining birinchi direktori V.Brinka rahbarligida joriy qilingan.

1957 yilga kelib yo'riqnoma kengaytirildi va unga ichki audit faoliyatiga tegishli bir qator vazifalar qo'shildi.

XX asr boshlari IX asr oxirlarida ichki audit risklarni nazorat qilish bo'yicha strategik instrumentga aylanadi.

Xozirgi kunda Avstraliya, XXR, Hindiston, Isroil, Yaponiya, Malayziya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Angliya va Shimoliy Irlandiya kabi mamlakatlarda ichki audit milliy institutlari mavjud.

Avaalo ichki audit tushunchasi xaqida so'z yuritganimizda bu borada xam turli qarashlar mavjudligini ko'rish mumkin.

Ichki audit – ichki nazorat tizimining asosiy elementi sifatida buxgalteriya hisobini yuritishning o'rnatilgan tartibiga amal qilinishini ta'minlashga qaratilgan xarakter sifatida bir qancha olimlarni qarashlari bir biriga yaqinligini ko'rish mumkin. Jumladan, V.Podolskiy, A.Savina, L.Sotnikova "Ichki audit iqtisodiyot sub'ektida uning mulk egalari manfaatlarini ko'zlab tashkil etilgan va uning ichki hujjatlari bilan tartibga solingan buxgalteriya hisobini yuritishning o'rnatilgan tartibiga amal qilinishini va ichki nazorat tizimi faoliyati ishonchliligini nazorat qiluvchi nazorat tizimi hisoblanadi" deb fikirlagan.

D.Litvin ichki auditni xususiyatini quyidagicha ochib beradi. "Ichki audit-xo'jalik sub'ekti tomonidan tashkil etilgan va uning rahbari uchun amal qiladigan buxgalteriya hisobini yuritishni o'rnatilgan tartibiga mosligini nazorat qilish tizimidir" deb e'tirof etgan.

A.Evdokimova va I.Pashkina "Ichki audit – buxgalteriya hisobi va ichki nazoratni to'g'ri yuritishga javob beradigan tashkilotning ichida qo'llaniladigan nazorat tizimi" sifatida e'tirof etadi.

V.Bursev ichki auditga quyidagicha ta'rif bergan "Ichki audit – bu xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriya hujjatlari bilan boshqaruv organi va korxonada mablag'lari harakatining nazorati bo'yicha boshqaruv kengashi va ijrochi organlarga ma'lumot berish borasida bajariladigan ishlardir".

A.Bogomolova ichki audit xizmatini quyidagicha izohlagan "Ichki audit - auditning asosiy qismidan iborat bo'lib, ta'sischilar huquqini ta'minlovchi xizmat hisoblanib va uning faoliyati mol-mulklardan to'g'ri foydalanishi va ichki nazoratning

ishonchliligini ta'minlash".

A.Sheremetning fikricha, "Ichki audit - korxonaga faqat o'zining ma'lumotlarini berish emas, balki hisobotlarning to'g'riligi va ishonchligini tasdiqlashdir".

Yana bir qator olimlar ichki auditni ishlab chiqarish buxgalteriyasi va tashkilotni boshqarishning tarkibiy elementi sifatida qaraydi. Jumladan, L.Voronina "Ichki audit ishlab chiqarish buxgalteriyasi bilan bog'liq. Ichki auditni ba'zi turlarini boshqaruv auditi deb nomlanishini" bildiradi".

Yana bir qator olimlar ichki auditni xususiyatlarini amaldagi nazorat va boshqaruv tizimini baholashga bog'laydi. Bunda, ichki auditni ichki nazorat tizimidan kengroq tushuncha sifatida boshqaruv tizimini baholash va turli konsultatsiya taqdim etish tizimi sifatida qaraladi. Bunday qarashlar T.Kamenskoy, E.CHeterkin va N.Vasileva ichki audit tushunchasiga bergan ta'riflarida ko'rish mumkin.

Xulosa. Mamlakatimizda byudjet jarayoni shaffofligini yanada oshirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e'tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yoli bilan byudjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini kuchaytirish talab etiladi.

Davlat sektorida ichki audit xizmati faoliyatini yo'lga qo'yish asosida byudjet hamda byudjetdan tashqari mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni samarali yo'lga qo'yish tizimi shakllantiriladi. Shu bilan birgalikda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish tamoyilini ijrosi ta'minlanadi

Bizning fikrimizcha davlat sektorida ichki audit faoliyatini uch yo'nalishda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi ya'ni, birinchi navbatda xarajatlarni to'g'ri rejalashtirishni o'rganish, ikkinchi navbatda smetalar doirasida mablag'larni sarflanishi xolati yuzasidan audit dalillari to'plash, ya'ni moliyaviy hisobotlarni taxlil qilish va uchunchi navbatda byudjet tashkiloti zimmasiga yuklatilgan vazifani samarali bajarish xolati o'rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.N.Qo'ziev, Sh.N.Fayziev, A.Z.Avloqulov, I.X.Sherimbetov Ichki audit. O'quv qo'llanma. -T.: IQTISOD-MOLIYA, 2015. 198 bet.
2. Axmedjanov K.B. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish Dis. avtoref. ... iqt. fan. d-ri. – T., 2016.
3. Ibragimova A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. infoCOM.Uz MCHJ. T.: 2010.
4. Mamatov Z.T. Audit. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2007.
5. А.С.Мушина. Становление и развитие внутреннего аудита // Образование. Наука. Научные кадры. 2013 №4. с.151-156.

6. Подольский В.И., Савина А.А., Сотникова Л.В.Международные и внутрифирменные стандарты аудиторской деятельности: учеб.пособие М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2010.
7. Литвин Д.В., Богданова Е.П., Михеева Л.В. Основы общего аудита.М.: МаркетДС, 2010.

